

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA DUTORCHI QIZLAR
ANSAMBLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN OLIB BORILADIGAN
TAJRIBA SINOV ISHLARINING MOHIYATI**

*Termiz davlat pedagogika instituti
Musiqqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi
Musiqqa ta'lim va san'at mutaxassisligi
2- kurs magistranti
Panjiyeva Nilufar Kamol qizi*

KIRISH

Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o'tib, xalqimizning buyuk ma'naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san'ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san'atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlari uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Mustaqillik sharofati umumiy o'rta ta'lim maktablarida dutorchi qizlar ansambllarini tashkil etish bilan milliy musiqa san'ati ham nazariy hamda amaliy jihatdan keng o'rganilib, har tomonlama ravnaq topib kelayotganligi sir emas.

ASOSIY QISM

Darhaqiqat, san'at millatning ma'naviy boyligi, hayotining ko'zguvidir. San'atlar ichida musiqa xalqqa tez yetib boradigan, keng ommalashgan turi hisoblanadi. Musiqa san'ati o'zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmun-mohiyatan keng qamrovliligi, ommabopligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Demak, ansambl birgalikda ijro etish ma'nosini bildiradi. Oddiy qilib aytganda ansambl o'ziga xos ko'rinish, shakl, ijrochilar to'dasi. Uning tarkibiga kiruvchi har bir sozanda-ijrochi alohida dunyoqarash, mahorat, saviyaga ega. Ijrochini kamolot sari intilishi uchun musiqiy asarlarni mohiyatini g'oyaviy va badiiy idrok etishi, o'z mahorati bilan cheklanib qolmay jamoadagi boshqa ijrochilarni ham qalban his etishi, o'rni kelganda jamoaga yordam beruvchi, o'zaro hamkorlikda yondashib muhim vazifalarni bajarib borishi tarkibning eng asosiy vazifalaridandir. Ansambl o'z tarkibidagi ijrochilar soniga qarab turlicha ataladi. Masalan, ikki ijrochidan iborat bo'lsa – duet, tarkibida uch ijrochini birlashtirgan bo'lsa – trio, to'rt ijrochi bo'lsa – kvartet, besh ijrochi – kvintet, olti ijrochi – sekstet, etti ijrochisini o'zida birlashtirgan bo'lsa – septet, sakkiz ijrochisiga ega bo'lsa – oktet deb aytiladi.

Ansambli sinfi fani yuzasidan qo'yilgan asosiy maqsad - talabalarda musiqa san'ait sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi ansambli hamda orkestrlarda mohir sozanda-ijrochilik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Shuningdek, yetuk malakali, ijodkorlik qoboliyatiga ega, kasbiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar asosida olib boradigan mutaxassislarni tayorlash.

Musiqa san'ati tizimidagi ta'lim muassasalarida yoshlarga ansamblda sozandalikning xususiyatlarini o'rgatishda nimalarga e'tibor berishdan iborat. Demak, ansambli sinfi dasturida belgilangan talablarni bajarish orqali talabalarning cholg'u ijrochiligi sohasida musiqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda musiqa haqida keng tushuncha berish bilan musiqadan ta'sirlanishni tarkib toptirish, musiqa asarlari ijro etish uchun adabiyotlardan foydalanish, har bir musiqa asarini amaliyot bilan bog'lash, chalgan asarlarini namoyish etish, bo'lajak pedagogik faoliyatida bilimlarini qo'llay bilishlariga o'rgatish fanning asosiy maqsadidir.

XULOSA VA NATIJALAR

Musiqa san'atining muhim tarmog'i bo'lgan dutorchilik ham musiqa ijodiyoti va ijrochiligining muhim tarmoqlaridan biridir. Musiqiy namunalar yaratilish va ijro etish kabi mezonlarni o'z ichiga oladi. Ularni tugal asar shakliga keltiradigan, ohang va sadolar orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan kuy va qo'shiqlarning yaratilishi bastakorlik ijodiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, musiqa san'atining eng muhim tarmog'i hisoblanadi. Demak, dutorchilik san'atida ham musiqa yaratuvchilari, ya'ni bastakorlarning ijodiyoti xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixi, an'ana va qadriyatlari haqida ma'lumot beruvchi axborot manbai vazifasini ham o'taydi.

Musiqashunoslik ilmida bastakorlik ijodiyotini o'rganish va tahlil etishga alohida e'tibor berib kelinganligini qayd etish lozim. Ushbu ilm-fan yo'nalishida, folklor va og'zaki professional musiqaning o'ziga xosliklari, yaratuvchi namoyandalari haqida so'z yuritilgan ilmiy risolalar, monografiya va ilmiy maqolalar orqali bastakorlik ijodiyoti yoritilib kelinadi. Bastakorlik ijodining nazariy va amaliy ildizlari haqida ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlari, ushbu soha tushunchasi hamda qarashlarni kengaytirishga qaratilgan.